

GENDER TENGLIGI INSON HUQUQLARINING ASOSIY E'TIROFI**Sobirov Sardorbek Bahodir o'g'li***Toshkent Davlat Yuridik Universiteti**Jinoiy odil sudlov fakulteti**2-bosqich talabasi***Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li***Termiz Davlat Universiteti**Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya- *Gender tengligi bu har qaysi sohada bo'lmasin insonlar o'rtasida jinsiy farqlanish ularning huquq va manfaatlariga ta'sir qilmasligiga oid tushuncha.*

Ko'p hollarda buni ayollarning huquqlari deb tushuniladi. Ammo bu noto'g'ri ya'ni, ayni holatda erkaklarning huquq, erkinliklari va manfaatlari ayollarnikidan qolib ketishini anglatishi kerak emas. To'g'ri, tarixan insoniyat qadimgi davrdan buyon matriarxat davrini boshidan kechirgan. Bunga sabab farzandlarini dunyoga keltiruvchi ona davr mobaynida bolalariga hukm o'tkazishi otalarga nisbatan kuchliroq bo'lgani uchun taqdir shuni taqozo etgan. Zamin zayli bilan asosiy mashg'ulotlar termchilikdan dehqonchilik, ovchilikka o'tishi to'dalarda erkaklarning mavqeyi oshishiga asosiy sabablardan bir bo'ldi desak adashmaymiz. Xatto XX asrning o'rtalariga qadar ayollar o'zlarining o'sha davrdagi huquqlarining yarmiga ham ega bo'la olmay kelganlar. Chunki ayollarning asosiy vazifalari turmush yumushlari, bola tarbiyasiga oid deb qabul qilingan. Vaholanki, hozirgi kapitalizmga qo'shilib taraqqiy etayotgan yuksak texnologik davrda ayollar jamiyati oila-ro'zg'or yumushlaridan ko'proq ishlar amalga oshira olishini yaqqol guvohi bo'lib bormoqdami. Albatta, jamiyatda tenglikning turli shakllari bor va bu hozirgi zamonning xalqaro siyosati darajasiga chiqib bormoqda biroq, ayollar huquqlarini himoya qilishni ba'zi g'arazgoy kimsalar noto'g'ri talqin qilib feminizm-gender tengligining radikal shaklini avj oldirishga urinmoqdalar. Faqatgina ayollarning huquqlari emasi erkaklarning huquqlari boshqacha qilib aytganda ayollar va erkaklarning jamiyatda rivjlanishi, munosib lavozimda ishlashi, jamiyatda o'z o'rnini topishi, ish haqi va dam olish masalalarida ularning jinsi ta'sir qilishi kerak emas.

Bo'lmasa nega ayollarga ko'proq e'tibor berilmoqda degan savolga javob beradigan bo'lsak, shuni ta'kidlash joizki, ayollarning ta'lim olish va o'z mehnat faoliyati, shaxsiy karyerasida davomida bir emas bir necha marotaba uzilishlar

ro'yi beradi. Endi oliy ta'lim muassalarida o'qish davri kelganda turmush qurishi lozimligi keyinchalik esa, farzandli bo'lishi va undan keyin farzand tarbiyasi bilan bog'liq yumushlar aynan ayollar gardaniga tushgan. Bundan tashqari yangi oila qurgan yoki oila qurish yoshiga yaqin ayollarning erkaklar bilan to'g'ri kelib qolganda ishga qabul qilish jarayonida ish beruvchilar ayollarning turmushga oid vazifalari bo'lishi, undan keyin dekret ta'tiliga ketishini inobatga olib, aynan erkaklar bilan mehnat shartnomasi tuzishni lozim topadi. Bu esa ayollarga nisbata mehnat munosabatlarining qattiq kamsitish ko'rinishidir. Shuning uchun davlatimiz qonunchiligida, qabul qilgan strategiyalarida ayollarga nisbatan ta'limga oid kredit imtiyozlar, ayollar daftari kabi loyihalar orqali ayollar huquqlari qaysidir ma'noda erkaklarniki bilan tenglashtirilishiga harakat qilinmoqda. Bu haqida batafsil yana keltirib o'tiladi.

Gender tengliga erishish istagi va u uchun kurash 1945-yildan boshlandi desak ham bo'ladi, chunki o'sha yili xalqaro hamjamiyatning asosiy tashkiloti bo'lmish BMT tashkil etilgan edi. Gender tengligi masalasi o'sha paytning o'zida 30 ta ishtirokchi davlatlar tomonidan ma'qullandi. Bunda davlatlar ayollarga erkaklar bilan teng ravishda davlat boshqaruvida va saylov jarayonlarida ishtirok etish huquqi ta'minlanishi ko'zda tutildi. Keyinchalik dunyo bo'ylab ayollar haqida ularning huquqlarini o'rnatishning keyingi bosqichlarini amalga oshirish maqsadida ma'lumotlar yig'ish va yuridik hamda fuqarolik huquqlarida yuzaga kelayotgan muammolarni yechish boshlandi. Bu hali boshlanishi edi chunki, endi BMT oldida uning tashabbusi bilan shu vaqtgacha 4 marta o'tkazilgan Xalqaro konferensiyalarni (1975-yilda Mexikoda, 1980-yil Kopengagenda, 1985-yil Nayrobuda, 1995-yil Pekinda o'tkazilgan) chaqirish masalasi turardi. Ushbu konferensiyalarda asosan ayollarning huquqlarini tiklash va himoya qilish maqsadi yo'lida birlashish, rejalar tuzish, keyingi bosqichlar uchun yo'nalishlarni belgilash, ayollarning jamiyat va oilada ahvollarini yaxshilash lozimligi belgilab kelindi. Keyinchalik gender tengligini ta'minlash va jinsiy kamsitishni yo'qotish, ayollarning rivojlanish jarayoniga jalb qilish, ayollarning butun dunyo bo'yicha tinchlikni ta'minlashga o'z hissalarini qo'shish masalalari yuzasidan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan dastur qabul qilinib, butun dunyoda amalga oshirilishi lozim, deya ta'kidlandi. Dastur ayollarning ta'lim olishi, bandlik, uy-joy bilan ta'minlanish, siyosiy faoliyat bilan shug'illanishga qaratilgan fundamental vazifalar belgilab qo'yildi.

2010-yil 2-iyulda BMT Bosh Assambleyasi gender tengligi va ayollar Imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo'yicha BMTning yangi tuzilmasini tashkil etdi va u "BMT-ayollar" deb nomlandi. Uning vakolatiga gender masalalari va ayollar axvolini yangilash bo'yicha Maxsusu maslahatchi

devonxonasi, Kotibiyat, ayollar ahvolini yaxshilash bo'yicha bo'lim, shuningdek, Ayollar manfaatlarini rivojlantirish uchun BMT Jamg'armasi va ayollar ahvolini yaxshilash bo'yicha xalqaro o'quv va ilmiy tadqiqot instituti mandatlari va vazifalari kiritildi. Mishel Bachelet Chilining birinchi ayol prezidenti BMT bosh kotibi o'rinbosari va yangi "BMT-ayollar" tuzilmasining rahbari etib tayinlandi va u 2011 yil 1 yanvardan boshlab o'z faoliyatini boshladi. Bularning bari ayollarning huquqlari tenglashtirilishiga oid harakatlar edi. Shuning milliy qonunchiligimida ham xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlarni berish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Bulardan biri 2019-yil qabul qilinga "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" qonun qabul qilinishida ham namoyon. Ushbu qonunda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi va jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi kabi prinsiplar bilan mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek, ushbu qonunda ayollar va erkaklarning teng tarzda huquq va imkoniyatlar bilan ta'minlanishida davlatning asosiy yo'nalishlari belgilab qo'yildi. Unga ko'ra davlat mazkur sohada ya'ni gender tengligi yo'nalishida dasturlar, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqadi; huquq va imkoniyatlarda tenglik madaniyatini shakllantiradi; oilani va bolalikni ijtimoiy jihatdan himoya qiladi, mas'uliyatli ona va ota tendensiyasini shakllantiradi va boshqalar. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allik va bandlikni vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalari va Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasining vakolatlari ko'rsatib o'tildi.

Gender tengligi borasida olib borilayotgan milliy siyosatda yana bir muhim hujjat bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'gan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroridir. Unda belgilab qo'yilgan 17 ta asosiy maqsadlardan beshinchisi etib "Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish" belgilab qo'yildi. Shu maqsadga muvofiq qat'iy vazifalar, ularning ijrochilari va eksport guruhlar belgilab qo'yildi.

So'ngi yillarda gender tenglikni ta'minlash ayollarning jamiyatdagi rolini oshirishga oid ishlar turli yo'nalishlarda olib borilmoqdi. Avvalo, ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarni takomillashtirish, ayollarni institutsional himoya qilish choralarini ko'rish, gender tengligi va ayollar huquqlari bo'yicha aholi qatlamini ogohlantirish, ularni xabardor etish, huquqni qo'llashda shu huquqlarga rioya etilishini ta'minlashga oid ishlar amalga oshirilmoqda. Gender tengligini institutsional himoya qilish yo'li bular

ichidan eng e'tiborga molilikdir. Shu asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tarkibida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilindi va ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanish vazifasi yuklatildi.

Aytish joziki, gender siyosati sohasida qabul qilingan normativ-me'yoriy hujjatlar hamda bajarilayotgan ishlar Davlatimizning siyosatga doir muhim qadamdir va xalqaro me'yoriy hujjatlar va standartlarga qo'liq mos keladi.

Gender tengligi inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lsa-da dunyoda bu bilan bog'liq kamsitilish, diskriminatsiya keng tarqalgan. Gender asimetriya ijyimoiy hayotning ayrim sohalarida erkaklar va ayollarning tengsizligini angalatadi. Misol uchun davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish, yirik va o'rta biznes sohasida erkaklarning ustunlik qilishi, iqtisodiyotning kam daromadli sohalarida esa ayollarning ustunlik qilishini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, jumladan, BMT ayollar va Xalqaro Mehnat Tashkiloti a'zo davlatlar va fuqarolik jamiyati, ayollar va jamoat tashkilotlari, feministik guruhlar va korxonalarni teng qiymatdagi ishi uchun teng haq to'lashni va ayollar hamda qizlarning iqtisodiy imkoniytlarini kengaytirishni targ'ib qilmoqda.

Davlatimizda esa xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish masalasiga yuqorida keltirilgan gender tenglikka erishish strategiyasi oid vazirlar mahkamasining qarorida aynan yoritib o'tilgan. Umga ko'ra, O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda ayollar soni 32 foizga yetib, 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi ayollar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga ko'tarildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yangilanayotgan O'zbekiston davrida gender tengligining o'ziga xos yo'nalishi, shakli va metodlaridan samarali foydalanilmoqda. Gender tengligining ta'minlanishi natijasida uy-ro'zg'or ishlari, farzandlar tarbiyasi va boshqa kundalik vazifalar faqat onalarga emas, balki otalarning ham zimmasiga kirishi haqida aytilayotganligini alohida e'tirof etish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, ot-onalar G'arbona gender tengligi bilan Sharqona gender tengligi masalalariga mentalitet nuqtayi nazaridan ham e'tibor berishlari masalaning yanada oydinlashishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Inson huquqlari A.R. Mo'minov, A.M. Tillaboyev (darslik);

2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘RQ-562-son qonuni;

•3. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;

4. “Oila va xotin –qizlar ilmiy-tadqiqot instituti” katta xodimi, dotsent H.D.Norqulov va “Oila va xotin –qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i D.M.Alimjanovalarning “Sharqda Gender tengligi masalalarining o‘ziga xos jihatlari” mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasida so‘zlagan nutqlari.